

---

## HOKIM QABULI

Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar mohiyatini to'g'ri anglagan va zimmasidagi mas'uliyatni chuqur his qilgan mutasaddi rahbarlar bugungi kunda aholi murojaatlariga quloq tutib, muammolar yechimini topib, samarali faoliyat olib bormoqdalar. Jumladan, Toshloq tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev fuqarolar murojaatini tinglash maqsadida o'zining navbatdagi qabulini o'tkazdi. Qabul davomida murojaatlarning aksariyati uy-joy ta'miri, moddiy yordam, yo'l, elektr energiya, davolanish uchun yordam, kredit masalalari bo'yicha bo'ldi. Tuman hokimi ushbu murojaatlarning ijobiy hal etilishi bo'yicha tegishli tashkilot rahbarlariga topshiriqlar berdi va ijrosi nazoratga olindi.

2025-02-05 10:38:45